
TURVAT MAHALLASIDA YANGI TIKUVCHILIK SYEXI ISH BOSHLADI

Toshloq tumanidagi "Turvat" mahalla fuqarolar yig'inining bo'sh turgan binosida tadbirkor Komilaxon Jo'rayeva tomonidan tikuvchilik syexi tashkil etildi.

Mazkur tikuv syexida 18 ta zamonaviy tikuv mashinasi o'rnatilib, 20 nafar xotin-qiz ish bilan ta'minlandi. Hozirda bolalar uchun maktab formasi, ko'rpa va to'shak qoplamlari tayyorlanmoqda.

Shu mahallada yashovchi usta-chevar Komilaxon Jo'rayevaning qayd etishicha, tikuvchilik qilish istagida qilgan murojaati tuman hokimi hamda tuman prokurori tomonidan ijobiy hal etilib, bo'sh turgan bino ijara asosida ajratib berildi. Natijada bu yerda ustoz-shogird an'anasi asosida shu sohaga qiziquvchilarga hunar o'rgatilib, ish bilan ta'minlandi.

Bundan tashqari subsidiya asosida tikuv mashinasi berilgan 9 nafar xotin-qizlar kooperatsiya asosida ishga qabul qilingan.

Bugun tuman hokimi Abduqahhor Djurabayev hamda 2-sektor rahbari Shuxratjon Musayevlar yangi tashkil etilgan tikuv syexiga tashrif buyurib, bu yerda ishchi

2024-07-30 13:29:37